

“QONUN QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING ROLI”

Turdiyeva Aziza Yo'ldosh qizi

Termiz davlat universiteti, Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Jumayev Mustaf o'g'li

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21331351>

Annotatsiya: Har bir demokratik jamiyatda qonunlar — davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatining mustahkam tayanchidir. Ushbu maqolada qonun chiqarish jarayonida jamoatchilik ishtiroki institutining huquqiy asoslari, amaldagi normativ-huquqiy mexanizmlari hamda ularning samaradorligi tahlil etiladi. Qonunchilik faoliyatining ochiqqligi, fuqarolarning qonun ijodkorligida ishtirok etish shakllari va ahamiyati keng yoritilib, mavjud tizimli muammolar hamda ularni bartaraf etish va takomillashtirish yo'llari chuqur tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonunchilik jarayonining legitimligi va hayotiyligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Qonun chiqarish, Jamoatchilik ishtiroki, Fuqarolik jamiyati, Demokratik jamiyat, Normativ-huquqiy mexanizmlar, Qonunchilik faoliyati, Ochiqlik va shaffoflik, Huquqiy asoslar, Xalqaro tajribalar, Qonun ijodkorligi, Legitimlik, Tizimli muammolar, Ishtirok shakllari, Takomillashtirish yo'llari, Huquqiy islohotlar, Fuqarolarning faolligi.

Kirish

Demokratik jamiyatda qonunlarning muhimligi, ularning qabul qilinishi va hayotga tatbiq etilishi davlatning siyosiy barqarorligi hamda fuqarolar huquqlarining himoyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qonun qabul qilishda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash — jamiyat va davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda ham fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqlari mustahkamlab qo'yilgan.

Har qanday demokratik huquqiy davlatda qonunlar nafaqat boshqaruv tizimining asosi, balki fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vositadir. Zamonaviy huquqiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qonun ijodkorligida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash qonunchilik jarayonining ochiqqligi, shaffofligi va legitimligini oshiruvchi muhim vosita sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishda qator huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Fuqarolik jamiyati taraqqiy etgani sayin, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun yanada kengroq imkoniyatlar va istiqbollar yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratining faollashuvi va takomillashuvi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qandayki, jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmasa, xuddi shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqaror taraqqiyotini jamoatchilik nazoratisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayonida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida bir qator huquqiy asoslar yaratilgan. Bu asoslar, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unda har bir fuqaroning davlat boshqaruvida bevosita yoki vakillari orqali ishtirok etish huquqi belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy normalar asosida qonun chiqarish faoliyatida ochiqqlik va shaffoflikni ta'minlovchi bir nechta muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, har qanday qonun loyihasi jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etilishi, keng muhokama qilinishi va fuqarolarning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishi lozim. Ushbu qonun fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy va ekspert doiralari, ommaviy axborot vositalari vakillarining qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish mexanizmlarini belgilab beradi.

Bundan tashqari, “Ommaviy muhokama” instituti amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, u orqali fuqarolar qonun loyihalari yuzasidan o‘z taklif va mulohazalarini bildirish huquqiga egadirlar. Bu institut qonunchilik tashabbusini demokratlashtirish, qonunlar sifatini oshirish va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida shakllangan “Elektron hukumat” tizimi orqali qonun loyihalari bo‘yicha ochiq axborotlar taqdim etilmoqda va fuqarolarga masofadan turib fikr bildirish imkoniyati yaratilgan. Bu esa qonun ijodkorligi jarayonida barcha ijtimoiy qatlamlar va manfaatdor tomonlarning teng huquqli ishtirokini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Dunyo tajribasiga nazar solsak, rivojlangan demokratik davlatlarda jamoatchilik ishtirokini ta‘minlashning turli samarali mexanizmlari mavjud. Masalan, AQShda qonun loyihalari bo‘yicha jamoatchilik eshituvlari Kongressda qonunlar muhokamasining ajralmas qismi hisoblanadi. AQSh hukumati jamoatchilik bilan aloqalar, jumladan reklama shartnomalari va mutaxassislar ish haqi uchun har yili 1,5 milliard dollar sarflaydi. Bu haqida AQSh Kongressining hisobot bosh boshqarmasi ma‘lumotiga asoslanib, TASS agentligi xabari berdi. “Federal hukumat jamoatchilik bilan aloqalar uchun har yili 1,5 milliard dollar sarflaydi: bundan 1 milliard dollar reklama va piar-shartnomalarga, yana 500 million dollar jamoatchilik bilan aloqa olib boruvchi 5 ming davlat xizmatchisining maoshiga yo‘naltirilgan”, - deya qayd etiladi hisobotda.

Hujjatda ta‘kidlanishicha, so‘nggi o‘n yillikda Vashington reklama va piar-shartnomalariga har yili 800 million dollardan 1,3 milliard dollargacha sarf qilgan. Muzokaralar federal hukumat faoliyatini nafaqat televideniye, radio va yangiliklar lentasi orqali, balki elektron pochta, internet saytlari, bloglar, matnli xabarlar, shuningdek Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham yoritishni ko‘zda tutadi. Kongressda ta‘kidlanishicha, jamoatchilik bilan aloqalar uchun javob beruvchi davlat xizmatchilarining o‘rtacha oylik maoshi taxminan 7,5 ming dollarni tashkil qilgan.

Shuningdek, Estoniya kabi davlatlarda “e-Participation” platformalari orqali har bir fuqaro qonun loyihasiga real vaqt rejimida fikr bildirishi va taklif berishi mumkin. Bunday tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ochiqlik, ishtirok va raqamli imkoniyatlar qonunchilik sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Kanada va Germaniyada esa “ochiq konsultatsiya” jarayonlari orqali nafaqat jamoatchilik, balki turli manfaatdor guruhlar — fuqarolik jamiyati tashkilotlari, biznes vakillari, ilmiy doiralari ham qonun loyihalarini baholashda faol ishtirok etadi.

Jamoatchilik nazorati borasida Fransiya ham o‘ziga xos tarzda faoliyat olib boradi. Fransiyada 1978-yil 17-iyulda “Boshqaruv organlari va jamoatchilik bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan bo‘lib, unda jamoatchilikka va barcha manfaatdor tomonlarga davlat organlarining faoliyati va ichki ma‘muriy hujjatlari bilan tanishish huquqi kafolatlangan. Fransiyada jurnalistik tekshiruv jamoatchilik nazoratining keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Jurnalistik tekshiruvlar orqali inson huquqlari va erkinliklari buzilganiga, turli sohalardagi salbiy hodisalarga jamiyatning, hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning e‘tiborini qaratish ko‘zda tutilgan.

Bugungi globallashuv davrida davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirokini yo‘lga qo‘yish demokratik jamiyat

qurilishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu yo'nalishda bir qator muhim qadamlar tashlagan. Fuqarolarning qonunchilik jarayonida ishtirok etishini ta'minlash uchun yurtimizda turli normativ-huquqiy mexanizmlar yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Birinchi navbatda, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunni eslab o'tish zarur. Ushbu qonun asosida har bir yangi qonun loyihasini tayyorlash va qabul qilish jarayoni ochiqlik va jamoatchilik ishtiroki prinsipi asosida amalga oshiriladi. Qonunga ko'ra: Qonun loyihalari rasmiy regulation.gov.uz, portaliga joylashtiriladi; Loyihalar kamida 10 kun davomida jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi; Har bir fuqaro va jamoatchilik tashkiloti o'z fikr-mulohaza va takliflarini berish huquqiga ega bo'ladi. Bu tizim fuqarolarning bevosita qonun loyihalarini ko'rib chiqish va ularning sifatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, davlat organlari o'z rasmiy veb-saytlari va onlayn platformalarida qonun loyihalarini e'lon qiladilar. Elektron shaklda fikr-mulohaza bildirish imkoniyatining mavjudligi odamlarning ishtirokini yanada oson va qulay qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z faoliyatini shaffoflik tamoyillari asosida olib bormoqda. Jumladan: jtiomiy eshituvlar tashkil qilinmoqda; Davra suhbatlari, seminarlar, forumlar o'tkazilmoqda; Jamoatchilik kengashlari orqali turli qatlam vakillari qonun ijodkorligida ishtirok etmoqda.

Demokratik davlatlar uchun qonunchilik faoliyatining ochiqligi va shaffofligi muhim tamoyil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham qonun chiqarish jarayonining oshkoraligini ta'minlash va unda fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantirish borasida muhim choralar ko'rilmogda. Oliy Majlis palatalari faoliyatining ochiqligi, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlari bu yo'nalishdagi muhim qadamlar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, jamoatchilik nazorati quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

1. Davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar.

Fuqarolar va jamoat birlashmalari o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish yoki davlat organlari faoliyatiga munosabat bildirish maqsadida: Ariza, taklif, shikoyat va so'rovlar tarzida murojaat etish huquqiga egadirlar. Bu murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va ularga belgilangan muddatlarda asoslantirilgan javob taqdim etiladi.

2. Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish

Davlat boshqaruvi organlarining hay'at majlislari: Muayyan qarorlar qabul qilinishidan oldin jamoatchilik vakillarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ochiq tarzda o'tkazilishi mumkin. Fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari hay'at majlislarida qatnashib, o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar.

3. Jamoatchilik muhokamasi

Qonun loyihalari, davlat dasturlari va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar: Jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Muhokama davomida fuqarolar va tashkilotlar o'z fikr, taklif va e'tirozlarini bildiradilar. Jamoatchilik muhokamasi — davlat organlarining qaror qabul qilish jarayonida ochiqlikni ta'minlash vositasidir.

4. Jamoatchilik eshituvi

Jamoatchilik eshituvlari: Ma'lum bir dolzarb masalani muhokama qilish uchun tashkil etiladi. Fuqarolar, mutaxassislar va davlat organlari vakillari bir joyda yig'ilib, mavzuga oid

ma'lumotlar bilan tanishadilar va ochiq muhokama olib boradilar. Bu shakl fuqarolarning muayyan masalalar yuzasidan chuqur va bevosita ishtirokini ta'minlaydi.

5. Jamoatchilik monitoringi

Monitoring — bu: Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlarning va amaldagi siyosatlarning ijro etilishini muntazam kuzatish va baholash jarayonidir. Monitoring natijasida aniqlangan kamchiliklar haqida jamoatchilik axborot beradi va zarur hollarda tegishli organlarga murojaat qiladi.

6. Jamoatchilik ekspertizasi

Jamoatchilik ekspertizasi: Davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan yoki qabul qilingan hujjatlar, dasturlar va loyihalarni mustaqil baholash jarayonidir. Fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va mutaxassislar huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilishadi va o'z xulosalarini taqdim etadilar. Ekspertiza natijalari davlat organlari tomonidan inobatga olinishi mumkin.

7. Jamoatchilik fikrini o'rganish

Fuqarolarning fikrini o'rganish: So'rovnomalar, intervyular, ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Olingan natijalar asosida jamoatchilik kayfiyati va ehtiyojlari aniqlanadi va davlat siyosatini shakllantirishda hisobga olinadi.

8. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hisobotlarni eshitish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari: Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining hisobotlarini va axborotlarini eshitish huquqiga ega. Bu orqali davlat organlari faoliyati ustidan mahalliy darajada nazorat o'rnatiladi.

Qonunchilikda belgilangan boshqa shakllar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, jamoatchilik nazorati:

- Ijtimoiy eshituvlar va davra suhbatlari: Ijtimoiy eshituvlar va davra suhbatlari qonun loyihalarini ishlab chiqish bosqichida keng jamoatchilik va soha mutaxassislarini jalb etish maqsadida tashkil etiladi. Bunday tadbirlar: Fuqarolarga o'z fikr va e'tirozlarini bevosita qonun ishlab chiquvchilarga yetkazish imkoniyatini yaratadi; Davlat organlari va fuqarolar o'rtasida ochiq va ishonchli muloqotni rivojlantiradi. Ijtimoiy eshituvlar orqali fuqarolar qonunchilik jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar.

- Fuqarolik tashabbuslari va petitsiyalari. Fuqarolar o'z tashabbuslari orqali: Yangi qonun qabul qilish, mavjud qonunni o'zgartirish yoki bekor qilish taklifi bilan chiqishlari mumkin; Muayyan miqdordagi fuqarolar tomonidan imzolangan petitsiyalar orqali qonunchilik tashabbuslari ilgari suriladi. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik murojaatlari to'g'risida”gi Qonuniga ko'ra, har bir fuqaro va fuqarolar birlashmalari o'z murojaatlari orqali qonun ijodkorligida ishtirok etish huquqiga ega.

- Internet platformalari orqali ishtirok. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fuqarolarning qonun yaratuvchi faoliyatda ishtirokini yanada qulaylashtirdi. Jumladan: regulation.gov.uz portalida qonun loyiholari jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi; Fuqarolar elektron tarzda loyihalar bilan tanishib, o'z fikr va takliflarini yuborishlari, ovoz berishlari mumkin. Elektron shakldagi ishtirok fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonidagi faolligini oshirish, vaqt va hududiy cheklovlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Fuqarolarning qonun ijodkorligida ishtiroki huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim omilidir. Ushbu ishtirok: Qonun hujjatlarini sifat jihatidan mukammallashtirishga; Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini oshirishga; Ochiqlik va

shaffoflik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, fuqarolarni qonun ijodkorligi jarayoniga jalb qilish va bu boradagi mexanizmlarni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida demokratik jarayonlarning yanada chuqurlashuviga turtki beradi.

Shuningdek, qonunchilik faoliyatining ochiqligi fuqarolar orasida huquqiy ong va madaniyatning oshishiga, davlat organlariga bo'lgan ishonchning kuchayishiga, korrupsion holatlarning kamayishiga xizmat qiladi. Fuqarolarning qonun ijodkorligidagi ishtiroki davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi hamda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish borasida muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda bu jarayonning samaradorligini cheklovchi tizimli muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish fuqarolik jamiyati institutlari bilan davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda qonunchilik faoliyatining hayotiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, regulation.gov.uz portalida yillik o'rtacha 2500 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalari jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Ammo, bu loyihalarga bildirilgan fuqarolik takliflari soni ayrim yillarda bor-yo'g'i 1-2% ni tashkil qilishi kuzatilgan. Bu esa mavjud mexanizmlar to'liq ishlamayotganidan yoki fuqarolarning ishtirokini rag'batlantirish vositalari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Asosiy tizimli muammolar quyidagilardan iborat:

- Axborot yetishmovchiligi: Ko'plab fuqarolar qonun loyihalari jamoatchilik muhokamasiga qo'yilganidan bexabar qolmoqda. Bu esa fuqarolarning qonun ijodkorligida faol ishtirok etishini cheklaydi.

- Qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinishi yetarli darajada targ'ib qilinmaydi. Natijada ko'pchilik fuqaro bunday muhokamalardan bexabar qoladi.

- Huquqiy savodxonlik darajasining pastligi: Ayrim fuqarolar qonun matnlarini to'g'ri tushunish yoki ularga taklif berish imkoniyatiga ega emas, bu esa ularning ishtirokini cheklaydi.

- Takliflarning inobatga olinmasligi: Fuqarolar tomonidan bildirgan takliflar va mulohazalarning amalga hisobga olinmasligi ishonchni susaytiradi.

- Mexanizmlarning rasmiylikka aylanib qolishi: Jamoatchilik ishtiroki uchun yaratilgan mexanizmlar ba'zida faqat shakl uchun amal qilayotgani kuzatilmoqda.

Tizimni takomillashtirish va muammolarni bartaraf etish yo'llari:

Ushbu muammolarni bartaraf etish va qonunchilikda jamoatchilik ishtirokini samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarda chora-tadbirlar ko'rish taklif etiladi:

- Ochiq va tushunarli axborot siyosatini yuritish

Chet davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamoatchilik ishtirokining samaradorligi to'g'ri axborot siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois: Qonun loyihalarining mazmuni oddiy va tushunarli tilda umumxalq e'tiboriga havola qilinishi lozim. Har bir loyiha bo'yicha infografikalar, qisqa va mazmunli videoroliklar, savol-javoblar shaklidagi tushuntirish materiallari tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi kerak. Maxsus onlayn platformalarda har bir loyiha haqida qisqa sharhlar, asosiy o'zgarishlar va kutilayotgan natijalar ko'rsatilgan alohida bo'limlar yaratilishi maqsadga muvofiq.

- Huquqiy targ'ibot va ma'rifatni kuchaytirish. Fuqarolarning qonunchilikdagi ishtirokini ta'minlash uchun ularning huquqiy savodxonlik darajasi oshirilishi zarur. Buning uchun:

Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan maxsus kurslar, seminarlar tashkil etilishi; Mahallalarda, mehnat jamoalarida huquqiy ma’rifatga oid muntazam uchrashuvlar o’tkazilishi; Onlayn huquqiy kurslar va mobil ilovalar orqali aholining huquqiy bilimlarini mustahkamlash imkoniyatlari yaratilishi kerak.

- Takliflar asosida tahliliy hisobotlar tayyorlash. Fuqarolar bildirgan takliflar va fikrlarning e’tiborga olinishi haqida ochiqlikni ta’minlash orqali jamoatchilik ishonchini mustahkamlash mumkin. Shu maqsadda: Har bir qonun loyihasi bo’yicha yig’ilgan takliflar tahlil qilinib, ularning asosida maxsus tahliliy hisobotlar tayyorlanishi; Ushbu hisobotlarda qaysi takliflar qabul qilingan, qaysilari rad etilgan va nima sababdan rad etilgani haqida batafsil izohlar berilishi; Tahliliy hisobotlar ommaviy axborot vositalarida, davlat organlari rasmiy saytlarida e’lon qilinishi lozim.

- Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish. Qonunchilik jarayonlarida jamoatchilik nazoratini mustahkamlash davlat boshqaruvining ochiqligini va samaradorligini oshiradi. Bunda: Har bir yirik qonun loyihasi bo’yicha jamoatchilik ekspertiza instituti joriy etilishi zarur. Ushbu institut mustaqil ekspertlar va fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat bo’lishi kerak; Mustaqil tahliliy markazlar va nohukumat tashkilotlarning qonunchilik loyihalarini baholashdagi ishtirokini rag’batlantirish lozim; Jamoatchilik ekspertizasi natijalari asosida qonun loyihalariga tegishli o’zgartirishlar kiritilishi mexanizmini qonuniy tartibga solish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Mazkur yondashuvlar:

Qonunchilik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash,

Fuqarolar va davlat o’rtasida ishonch va samarali muloqotni mustahkamlash,

Fuqarolik jamiyatining barqaror va faol rivojlanishini qo’llab-quvvatlash,

Demokratik boshqaruv tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Natijada, qonun ijodkorligi jarayoniga keng jamoatchilik jalb etiladi va qonunlarning sifat darajasi, ularning hayotiyligi va amaliy natijadorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa

Demokratik jamiyatda qonun qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash — davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va fuqarolarning faol ishtirokini rivojlantirishning muhim kafolatidir. O’zbekiston Respublikasida so’nggi yillarda ushbu yo’nalishda sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda: qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamasi, elektron platformalar orqali ishtirok, jamoatchilik eshituvi va monitoringi kabi mexanizmlar joriy qilingan.

Biroq, amaliyotda hali ham axborot yetishmovchiligi, huquqiy savodxonlikning pastligi va fuqarolar takliflarining yetarli darajada inobatga olinmasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa qonunchilik jarayonida jamoatchilik ishtirokining samaradorligini pasaytiradi.

Kelgusida fuqarolarning qonun ijodkorligida faolroq ishtirokini ta’minlash uchun axborot siyosatini kuchaytirish, huquqiy ma’rifatni oshirish, fuqarolik tashabbuslarini rag’batlantirish va jamoatchilik ekspertizasi tizimini takomillashtirish zarur. Mazkur yondashuvlar qonunlar sifatining oshishiga, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga va davlat boshqaruvida ochiqlik va ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr (so’nggi o’zgartirishlar bilan).
2. O’zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi Qonuni, 2018-yil 12-aprel.
3. O’zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi Qonuni, 2020-yil 24-noyabr.

4. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik murojaatlari to'g'risida”gi Qonuni.
5. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
7. Lex.uz
8. Kun.uz
9. regulation.gov.uz — Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasi portali.
10. <https://cyberleninka.ru>
11. <https://in-academy.uz>
12. <http://worldlyjournals.com>